



DAVLAT VA SIYOSATNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Otajonova Zahro Qudrat qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti talabasi
e-mail: otajonovazahro1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat va siyosatning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, ularning o'zaro bog'liqligi hamda zamonaviy bozor munosabatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida iqtisodiy o'sishni ta'minlashda faqatgina bozor mexanizmlari yetarli emasligi, balki kuchli siyosiy institutlar va huquqiy kafolatlarning ahamiyati beqiyos ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada inkyuziv siyosiy institutlarning shakllanishi va davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtirok etish chegaralari qiyosiy o'rganiladi. Xususan, barqaror taraqqiyotga erishishda davlatning strategik tartibga soluvchi funksiyasi hamda bozor erkinligi o'rtasidagi optimal muvozanatni topish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy rivojlanish, siyosiy institutlar, davlatning iqtisodiy roli, inkyuzivlik, iqtisodiy liberalizm, siyosiy barqarorlik, bozor mexanizmlari, strategik boshqaruv.

Аннотация: В данной статье анализируется роль государства и политики в экономическом развитии, их диалектическая взаимосвязь и влияние на современные рыночные отношения. В ходе исследования обосновывается, что для обеспечения экономического роста недостаточно одних лишь рыночных механизмов, неопределимое значение имеют сильные политические институты и правовые гарантии. Также в статье проводится сравнительный анализ формирования инклюзивных политических институтов и пределов государственного вмешательства в экономические процессы. В частности, с научной точки зрения исследуются вопросы поиска оптимального баланса между стратегической регулирующей функцией государства и рыночной свободой в достижении устойчивого развития.

Ключевые слова: экономическое развитие, политические институты, экономическая роль государства, инклюзивность, экономический либерализм, политическая стабильность, рыночные механизмы, стратегическое управление.

Abstract: This article analyzes the role of the state and politics in economic development, their dialectical interconnection, and their impact on modern market relations. The study substantiates that market mechanisms alone are insufficient to ensure economic growth; instead, the importance of strong political institutions and legal guarantees is paramount. Furthermore, the article provides a comparative study of the formation of inclusive political institutions and the boundaries of state intervention in economic processes. In particular, it scientifically investigates the issues of finding an optimal balance between the strategic regulatory function of the state and market freedom in achieving sustainable development.

Keywords: economic development, political institutions, the economic role of the state, inclusivity, economic liberalism, political stability, market mechanisms, strategic management.



KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot fani va xalqaro munosabatlar amaliyotida mamlakatlarning taraqqiyot darajasi o'rtasidagi farqni tushuntirishda siyosiy institutlarning roli asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Nima uchun ayrim davlatlar tabiiy resurslarga boy bo'lsa-da, iqtisodiy turg'unlikkadavom etishmoqda, boshqalari esa cheklangan imkoniyatlar bilan iqtisod tomonlama ildam odimlashmoqda?

Bu savolning javobi sifatida davlat boshqaruvi va siyosiy irodaning iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini aytish mumkin. Iqtisodiyot tushunchasi shunchaki raqamlar va grafiklar yig'indisi yohud statistikadan iborat emas, balki muayyan siyosiy qarorlar va huquqiy normalar majmuasining natijasidir. Iqtisodiy rivojlanish jarayonida siyosiy omillarning ustuvorligi masalasi o'tgan asrlar iqtisodchilaridan tortib zamonaviy tadqiqotchilargacha bo'lgan barcha olimlar e'tiborida bo'lib kelgan.

Xususan, inkyuziv siyosiy institutlar - ya'ni jamiyatning keng qatlamlari iqtisodiy va siyosiy hayotda ishtirok etishini ta'minlovchi tizimlar barqaror o'sishning asosiy drayveri hisoblanadi. Ammo, aksincha, resurslarni faqat ma'lum bir guruh manfaati uchun yo'naltiruvchi tizimlar qisqa muddatli o'sishni ta'minlashi mumkin, lekin uzoq istiqbolda iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'lishi ko'plab tarixiy misollar bilan isbotlangan.

Davlatning iqtisodiy hayotdagi o'rnini asosan ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, barqaror makroiqtisodiy muhitni yaratish va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash bo'lsa, ikkinchidan, bozor mexanizmlari samarali ishlamaydigan sohalarida ta'lim, infratuzilma, ijtimoiy himoya) strategik aralashuvni amalga oshirishdir. Iqtisodiy liberalizm g'oyalari orqali bozor erkinligi ijobiy hisoblansada, davlatning yo'nalish beruvchi va tartibga soluvchi roli bo'lmagan joyda monopoliya kuchayishi va oqibatda raqobatning pasayishi kuzatiladi.

Iqtisodiy o'sishdagi siyosiy omilni o'rganishda A.Alesina va R.Perotti (2019) tomonidan ilgari surilgan go'ya asosiy ahamiyatga ega. Mualliflarning fikricha, siyosiy barqarorlik shunchaki "tartib-intizom"da emas, balki investitsion jozibadorlikning birlamchi sharti hisoblanadi.

Ya'ni, jamiyatdagi insonlarning ijtimoiy qatlamlari o'rtasida daromadlar tengsizligi siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy subyektlarning kelajakka bo'lgan ishonchini so'ndiradi.

Ushbu nazariyaning bosh g'oyasi - noaniqlik (uncertainty) omilidir. Alesina va Perotti siyosiy tizimda barqaror bo'lmagan, kutilmagan o'zgarishlar ehtimoli yuqori bo'lgan mamlakatlarda investorlar "kutish va ko'rish" (wait-and-see) taktikasini tanlashlarini isbotlab beradilar.

Bu esa o'z navbatida kapitalning real sektordan chiqib ketishiga va innovatsiyalarning turg'un holatga o'tishiga sabab bo'ladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sish uchun faqatgina past inflyatsiya yoki soliq imtiyozlari berilishining o'zi yetarli emas, balki hukumat, avvalo, qonuniy yo'l bilan hokimiyat almashinuvi va siyosiy qarorlarning amalda qo'llanishini kafolatlashi shart. Aks holda, har qanday iqtisodiy kutilmagan vaziyatlar tufayli o'z samarasini yo'qotishi mumkin.

Alesina siyosiy muhitning "tashqi" barqarorligiga urg'u bergan bo'lsa, yana bir mutaxassislardan biri Lant Pritchett (2017) e'tiborni davlat institutlarining "ichki" sifatiga

qaratgan. Pritchettning iqtisodiy o'sish nazariyasida qilgan ishlaridan eng kattasi bu "institutsional izomorfizm" tushunchasini ochib berganidir. Uning tahlillariga ko'ra, ko'plab davlatlar rivojlangan mamlakatlarning institutsional shakllarini (masalan, zamonaviy soliq tizimi yoki mustaqil sudlar) nusxalab, o'z davlatlarida joriy etishadi, biroq ushbu institutlar amalda kutilgan funksiyani bajarmaydi.

Pritchett iqtisodiy o'sishni ta'minlashda "institutsional imkoniyatlar" tushunchasini birinchi o'ringa qo'yadi. Uning qarashicha, davlatning iqtisodiyotdagi roli faqatgina qonunlar qabul qilishdan iborat bo'lmasligi kerak. Haqiqiy barqaror o'sish - institutlarning muammolarni qanchalik tez va adolatli hal qila olishida yuzaga keladi. Misol sifatida mulk huquqi qog'ozda himoyalangan bo'lsa-yu, lekin sud tizimi korrupsiyaga botgan yoki sekin ishlayotgan bo'lsa, bu iqtisodiy o'sish uchun to'siq bo'lib qolaverishini aytish mumkin.

Pritchettning xulosalaridan yana shuni anglash mumkinki, barqaror taraqqiyotga erishish uchun davlat bironvga taqlid qilishdan voz kechib, o'zining real boshqaruv salohiyatini oshirishi lozim. Bu yondashuv Alesinaning nazariyasini to'ldiradi va iqtisodiy muvaffaqiyat nafaqat siyosiy tinchlikka, balki o'sha tizim ichidagi institutlarning mexanik jihatdan qanchalik to'g'ri va samarali ishlashiga bog'liqligini isbotlaydi.

Maqolaning annotatsiya qismida ta'kidlanganidek, barqaror taraqqiyot nizomi faqat bozor mexanizmidan iborat bo'lib qolmaydi. Bu vaziyatda zamonaviy institutsional iqtisodiyotning eng yirik vakillari D. Ajemo'g'li va J. Robinsonning qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularning fikricha, siyosiy institutlar ikki turga bo'linadi: ekstraktiv-boylikni tor doiradagi guruhlar foydasiga qayta taqsimlovchi va inklyuziv-jamiyatning barcha qatlamlari uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratuvchi.

Siyosiy barqarorlik uzoq muddat davomida samaradorlik keltirishi aynan institutlarning inklyuzivligiga bog'liq. Agar siyosiy tizim ochiq bo'lsa va iqtisodiy tamoyillar hamma uchun teng bo'lsa, jamiyatda innovatsiyalarga intilish kuchayadi. Aksincha, ekstraktiv institutlar hukmron bo'lgan jamiyatda siyosiy barqarorlik vaqtinchalik ahamiyatga ega bo'lib, u ko'pincha bir joyda "qotib qolish"ga olib keladi. Binobarin, iqtisodiy o'sishning bir maromdaligi bu nafaqat YaIM raqamlari, balki jamiyatdagi barcha subyektlarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish huquqi kafolatlanganligidir.

Nazariy xulosalarni amaliy dalillar orqali isbotlash maqsadida, siyosiy barqarorlik darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar guruhlarining iqtisodiy dinamikasini ko'rib chiqamiz. Quyidagi jadvalda Jahon bankining Worldwide Governance Indicators (WGI) va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosidagi umumlashtirilgan qiyosiy tahlil keltirilgan:

№	Mamlakatlar guruhi	Siyosiy barqarorlik darsisi (WGI)	Xorijiy investitsiyalar oqimi GDPga nisbatan, (%)	O'rtacha yillik o'sishi (%)
1	Yuqori barqarorlik	0.90 – 1.50	4.5 – 6.0	2.5 – 3.5
2	O'rta barqarorlik	0.0 – 0.85	2.0 – 4.0	4.0 – 6.0
3	Past barqarorlik	-1.50 – (-0.50)	0.1 – 0.8	0.5 – 1.5

O'zbekistonda institutsional transformatsiya: Huquqiy kafolatlar va taraqqiyot manbalari.



Xalqaro nazariyalarda ilgari surilgan "siyosiy barqarorlik - iqtisodiy taraqqiyot garovi" tamoyili bugungi O'zbekiston iqtisodiy modelining bosh mezoniga aylandi. A. Xo'jayev (2020) ta'kidlaganidek, mamlakatda davlatning roli "nazorat qiluvchi"dan "xizmat ko'rsatuvchi va kafolatlovchi" institutga transformatsiya bo'lmoqda. Bu jarayonni bir necha asosiy yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin:

Birinchidan, mulk huquqining konstitutsiyaviy kafollari. Lant Pritchett (2017) nazariyasidagi "institutsional quvvat" O'zbekiston misolida Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 65 va 67-moddalarida o'z aksini topadi. Unda xususiy mulk daxlsizligi va iqtisodiy faoliyat erkinligi nafaqat deklarativ, balki davlatning mutloq majburiyati sifatida belgilandi. Bu Alesina va Perotti (2019) modelidagi mulkni asossiz olib qo'yishni minimallashtirishga xizmat qiluvchi huquqiy "qalqon" hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlar yo'lidagi turli to'siqlarni olib tashlash va ortiqcha xarajatlarni kamaytirishdir. Mutaxassis A. Mustafayev (2021) ta'kidlaganidek, bugungi global zamonda investorlarni jalb qilishning eng samarali yo'li

byurokraziyani jilovda ushlab turishdir. Masalan, litsenziya olishning raqamlashtirilishi (Litsenziya.uz) islohotlarning shunchaki qog'ozda emas, balki amalda ishlayotganini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar investorlarning eng qimmatli boyligi bo'lgan vaqtini 2-3 baravargacha tejash imkonini bermoqda.

Uchinchidan, xalqaro maydon bilan integratsiya va kelajakni aniq bashorat qilib bo'ladigan muhit yaratishdir. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish yo'lidagi sa'y-harakatlari va qonunlarimizni xalqaro talablarga (masalan, intellektual mulk va savdo qoidalariga) moslashtirishi xorijiy investorlar uchun "o'yin qoidalari" endi o'zgarmas va barqaror ekanidan dalolat beradi. Mustafayev ta'kidlaganidek, intellektual mulk himoyasining kuchaytirilishi inson farzandi, xususan, investorlardagi ikkilanish va xavotirlarni kamaytirib, ularga ishonch bag'ishlaydi.

Statistik tahlil va reytinglardagi dinamika: O'zbekistonning institutsional islohotlari xalqaro reytinglarda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, Jahon

bankining "Worldwide Governance Indicators" (WGI) hisobotida O'zbekistonning "Hukumat samaradorligi" va "Tartibga solish sifati" ko'rsatkichlari so'nggi besh yilda sezilarli o'sishni ko'rsatgani ta'kidlab o'tilgan. Bu esa, o'z navbatida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining YaIMga nisbatan o'sishiga (yillik o'rtacha 10-15% o'sish sur'ati) olib keldi.

Xulosa

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy o'sish uchun faqatgina bozor erkinligi yetarli emas. Davlat institutlarining huquqiy jihatdan pishiqligi va siyosiy irodaning barqarorligi iqtisodiy taraqqiyotning "dvigateli" hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot iqtisodiy o'sishning barqarorligi nafaqat makroiqtisodiy raqamlar, balki jamiyatdagi boshqaruv infratuzilmasisifati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. O'tkazilgan chuqur tahlillar natijasida quyidagi ba'zi xulosalar shakllantirilganini guvohi bo'lamiz:

Birinchidan, siyosiy barqarorlik iqtisodiy ishonchning asosi sifatida namoyon bo'ladi. A. Alesina va R. Perotti nazariyasi tasdiqlaganidek, siyosiy tizimdagi har qanday noaniqlik investorlarda ikkilanishga olib keladi va kapitalning real



sektordan qochishiga sabab bo'ladi. Binobarin, barqaror o'sish uchun davlat shunchaki tinchlikni saqlashi emas, balki qonun ustuvorligi orqali uzoq muddatli "o'yin qoidalarini"ni kafolatlashi shart.

Ikkinchidan, davlat institutlarining samaradorligi ularning tashqi qiyofasi bilan emas, balki ichki tarafdin ishni qay tartibda bajarish salohiyati bilan o'lchanadi. Lant Pritchettning tuzilmaviy birxillik haqidagi ogohlantirishi rivojlanayotgan davlatlar uchun eng muhim darsdir: xalqaro standartlarni shunchaki nusxalash emas, balki ularni milliy iqtisodiy muhitga moslashtirish taraqqiyotning kalitidir. Sifatli institutlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va tadbirkorlik faolligini rag'batlantiruvchi asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, institutsional islohotlar iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas qismidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va tadbirkorlik erkinligi to'g'risidagi huquqiy hujjatlar Alesina aytgan "noaniqlik"ni kamaytirishga va Pritchett aytgan "institutsional quvvat"ni oshirishga qaratilgan. Davlatning iqtisodiyotdagi rolini optimallashtirish va xalqaro huquqiy normalarga (masalan, JST standartlariga) integratsiyalashuv barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolishning yagona strategik yo'lidir.

Yakuniy xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, barqaror iqtisodiy o'sish - bu shunchaki "boylik to'plash" emas, balki sifatli siyosiy institutlar himoyasidagi inklyuziv taraqqiyot jarayonidir. Kelgusida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat institutlarining hisobdorligini oshirish va sud tizimining mustaqilligini amalda kafolatlash orqali investorlar ishonchini yanada mustahkamlash ustuvor vazifa bo'lib qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. Crown Business. (Institutlar va iqtisodiy o'sish bog'liqligi bo'yicha asosiy asar).

2. Alesina, A., & Perotti, R. (1996). Income distribution, political instability, and investment. *European Economic Review*, 40(6), 1203–1228.

[https://doi.org/10.1016/0014-2921\(95\)00030-5](https://doi.org/10.1016/0014-2921(95)00030-5)

3. Andrews, M., Pritchett, L., & Woolcock, M. (2017). Building state capability: Evidence, analysis, action. Oxford University Press.

4. Mustafayev, A. (2021). Global beqarorlik sharoitida O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishning institutsional omillari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (5), 124–135.

5. North, D. C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge University Press. (Institututsional ekotizimning fundamental asosi).

6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (2021). Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (Yangi tahriri). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/200657>

7. Pritchett, L. (2001). Where has all the education gone? *The World Bank Economic Review*, 15(3), 367–391. (Inson kapitali va o'sish drayverlari tahlili).



8.Rodrik, D. (2007). One economics, many recipes: Globalization, institutions, and economic growth. Princeton University Press. (Global integratsiya va iqtisodiy modellar haqida).

9.World Bank. (2023). Uzbekistan country economic memorandum: Seizing the opportunity to accelerate growth. World Bank Publications.

<https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/39450>

10.World Trade Organization. (1994). Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights (TRIPS). WTO Agreements.

https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_01_e.htm